



SOMONIYLAR DAVLATIDA MUDOFAA ISHI TARIXI

Toshkent davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi Siddiqov Husan

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlati uning boshqaruvi hamda mudofaa ishi tarixi, harbiy salohiyati, qo'shinning kuch qudrati va mudofaa taktikasi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Somoniylar, qo'shin, sarkardalar, harbiy tizim, ajdod, markaziy hokimiyat, devon, jangovar, muhofaza

Tarixda har bir davlat o'zining mustaqilligini, barqarorligini, farovonligi va buyukligini qo'shini orqali namoyon etgan. Davlatlarning kelajagi ham aynan qo'shinga bog'liq edi. Qo'shinni yaxshi tashkil etish, bevosita sarkardalar va hukmdorlarning harbiy salohiyatiga bog'liq. Qo'shin davlat tayanchi yurt mustaqilligining suyanchig'idir. Shuning uchun ham tarixda barcha davlatlar qo'shinga alohida e'tibor bergan. Qo'shinni tuzish, saqlash va ta'minotiga alohida e'tibor berilgan. Qo'shinga alohida e'tibor berib, o'z davrining yirik harbiy tizimini tashkil etgan davlatlardan biri Somoniylar davlati edi. Somoniylar davlati O'rta asrlarning harbiy jihatdan mukammal qo'shini tuzdi. Bu qo'shin esa davlatning istiqbolini ta'minladi.

Somoniylar davlati Harbiy tizimi haqida ma'lumot berishdan avval davlat tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak. Somoniylarning oilaviy nisbasi, ya'ni nomi ularning ajdodi bo'lmish Somonxudot ismi bilan bog'liq. Somonxudotning kelib chiqishi haqida turli xil ma'lumot va fikrlar mavjud. Abu Bakr Narshaxiy (X asr) va Hamza Isfahoniy (X asr) keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Somonxudot Balx viloyatidagi Somon qishlog'idan, al-Mukaddasiy (X asr) ning ma'lumotiga ko'ra esa, u Samarqand viloyatidagi Somon nomli qishloqdan bo'lgan. "Sa'diya" nomli asar (XVII asr) da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning asl ismi Arquq bo'lib, u Farg'onadan Termizga ko'chib kelgan va u yerda Somon nomli qishlog'iga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro, Farg'ona, Tohariston, Xuttalon va boshqa viloyatlarda ham Somon nomli qishloqlar bo'lganligi qayd etilgan. Bu ma'lumotlar "Somon" toponimi o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida va undan tashqari yerlarda ham keng tarkalgan joy nomi bo'lganligidan dalolat beradi.

Somoniylar boshqaruv tizimi aniq va mukammal ravishda tuzilgan bo'lib, o'zida davlatchilikning o'sha davrda eng ilg'or an'alarini mujassamlashtirgan.



Lekin qonunchilik nuqtai nazaridan Somoniylar hukmronligini teng huquqli mustaqil davlat sifatida qarash haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki u davrda, ya'ni IX-X asrlarda, Abbosiylar xalifaligida markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlardagi mahalliy hokimiyat kuchaygani va deyarli mustaqil ichki siyosat olib borgani bilan, barcha mahalliy sulolalar, shu jumladan, Somoniylar ham, rasman bo'lsada, Bag'dod xalifalariga bo'ysungan edilar. Ular faqat ma'muriy boshqaruvda va xo'jalik ishlarini yuritishda xalifalar tomonidan berilgan keng huquklar va o'zini o'zi boshqarish vakolatlariga ega bo'lganlar. Shariat nuqtai nazaridan g'am, xalqaro huquq nuqtai nazaridan ham, Xuroson va Movarounnahr ma'muriy jihatdan Abbosiylar xalifaligining ajralmas qismi, Somoniylar esa xalifalarning shu viloyatlardagi hokimiyatni boshqarish uchun tayinlangan voliylari hisoblangan. Demak, Somoniylarning hukmronligi davlatchilik sifatida emas, balki Abbosiylar xalifaligining tarkibida Bag'doddan tayinlangan va nisbatan mustaqil ichki siyosat olib borgan mahalliy hukmdorlar sulolasining hokimiyati sifatida baholanishi mumkin. Ma'muriy, siyosiy va iqtisodiy ishlarni devon boshqargan, Somoniylar byurokatiyasi diplomatik suhbatlarida arab tilidan foydalangan. Hokimlarning ham, mahalliy hukmdorlarning ham asosiy vazifasi soliq yig'ish va kerak bo'lganda Somoniylar hukmdorini qo'shinlar bilan qo'llab-quvvatlash edi.

Somoniylar sulolasining hokimiyatdagi vakillari amir deb atalgan bo'lib, ularga dargoh (saroy axli) va devonlar (harbiy boshqarmalar) bo'ysungan. Vazir mansabiga, asosan, Jayhoniylar, Bal'amiylar va Utbiylar aslzoda oilalarining vakillari tayinlanar edi. Jayhoniylar va Bal'amiylar ulardan eng mashhur vazirlardir. Somoniylarda vazir devonidan tashqari 10 devon bo'lib, ular uchun Buxorodagi Registon maydonida maxsus katta bino qurilgan edi. Somoniylarning boshqaruv tizimi, asosan, mahalliy dehqonlar, aslzodalar va din arboblardan tashkil topgan bo'lib, har bir amaldor arab va fors tillarini mukammal bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy fanlardan xabardor bo'lishi shart edi. Bunday odamlarni ahl alqalam (qalam axli) deb atashgan.

Somoniylar tashqi va ichki dushman xujumlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor beradilar. Xususan Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shin maxsus saroy muntazam sarbozlar qismini tuzadi. Muntazam sarbozlar oliy dargoh va shaxsan amirni hamda uning xaramini qo'riqlash uchun turk g'ulomlaridan tuzilgan edi. Turkiston va Movarounnahr harbiy xizmatchi, mohir chavandoz turk o'smirlarini qadimdan doimiy ravishda voyaga yetkazib kelgan bo'lsa ham, ammo faqat somoniylargina turk yigitlarini birinchilar qatorida saroyning shaxsiy sarbozlari safiga tortgan edilar. Saroy sarbozlariga qabul qilingan o'spirin turk g'ulomining harbiy xizmati ma'lum



muddatga va qat'iy belgilangan tartibda o'tar edi. Xizmatning birinchi yili bo'zdan kiyim kiygan piyoda, ikkinchi yili yuganlangan otliq askar xizmatini bajarar edi. Uchinchi yili beliga qora cho'rin kamar bog'lanib, beshinchi yilga borganda u yaxshi kiyim-kechak va yulduzli yuganni olishga muyassar bo'ladi. Agarda xizmat davrida g'ulom nojo'ya harakatlar qilmagan bo'lsa, yettinchi yili unga «visoqboshi», ya'ni «chodir boshligi» degan unvon berilar edi va o'zi bilan qo'shib hisoblaganda 4 nafar askarga u boshliq bo'lardi. Bunday unvonga erishgan g'ulom kumush ip bilan tikilgan qora rangli bosma namat qalpoq va qimmatbaho ganjaviy etik kiyib yurardi. G'ulomlar orasida eng qobiliyatli va uzoq yillar xizmat qilgan ayrim navkarlar «haylboshi», ya'ni otliq qo'shin boshlig'i, so'ngra esa «hojib» degan lavozimga ko'tarilar edi.

Ismoil Somoniy saroyning maxsus, muntazam sarbozlaridan iborat yaxshi qurollangan harbiy qo'shin tuzadi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar «hojib» lavozimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i «hojib ul-hujob» yoki «hojibi ul-buzruk» deb yuritilar edi. Bunday unvon Somoniylar saroyidagi oliy unvon hisoblanardi. Xuroson lashkarboshisi esa sipoxsolor deb atalgan bo'lib, boshqaruv ishlariga katta ta'sir o'tkazib kelishgan. Somoniylar davlatidagi eng muhim viloyat Xuroson bo'lib, dastlab somoniylar hukmdorining qarindoshi yoki mahalliy Eron shahzodasiga berilgan, keyin esa uning eng ishonchli qullaridan biriga berilgan. Xuroson hokimi odatda sipah-solor (bosh qo'mondon) edi. Turk Tosh Hojib Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur saroyida katta sharaf va nufuzga erishdi va sipohsolar martabasini oldi va Xuroson hokimi bo'ldi. Somoniylarning soliqlardan kelib tushadigan yillik daromadi 45 mln. dirhamni tashkil qilgan bo'lsa, bu mablag'dan 20 mln.ga yaqini boshqaruv tizimida xizmat qilayotgan amaldorlar va qo'shin ehtiyojlariga sarflangan. Xizmat uchun ish haqi hammaga har 90 kunda, ya'ni bir yilda 4 marta muntazam ravishda berib turilgan. Harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan „ariz“ boshliq devoni ariz deb atalgan maxsus mahkama shug'ullanar edi. Ariz qo'shinlarga maosh berar, uning intizomi, yarog'-aslahasi, oziq-ovqati va otlarining yem-xashagi, taminoti bilan shug'ullanar edi. Narshaxiyning yozishicha, somoniylar boshqaruvi asosan 10 ta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblangan. Nasr II davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan xabardor bo'lgan savodli kishilardan tanlab olingan. Ismoil Somoniy



saroyning maxsus, muntazam sarbozlaridan iborat yaxshi qurollangan harbiy qo‘shin tuzadi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar hojib lavozimiga ko‘tarilgan.

Abbosiylar xalifaligidagi kabi turkiy qullar Somoniylar davlatida ham yuqori lavozimlarni egallashlari mumkin edi, bu esa ularga ba‘zan hukmdorni deyarli o‘z qo‘g‘irchog‘iga aylantirib qo‘yadigan darajada kuch-qudrat berardi. R.Fray ta‘kidlaganidek, Umaviylar xalifaligi davrida (656-750) arablar uchun Sharqiy Xuroson va Movaronoronda turklarga qarshi kurashish juda qiyin bo‘lgan. Turkiy qullar jangovar xislatlari uchun juda qadrlangan, Somoniy amirlari harbiy yoki harbiy xizmatga tayyorlanayotgan qullar uchun maktablar ochgan. Turk Alp-tegin somoniylar qo‘riqchisi safiga yozilib, asta-sekin qo‘riqchilarning oliy qo‘mondoni (943-954) "Hojib hojib" darajasiga ko‘tariladi. Bu lavozimda yosh Abd al-Malik I (954-961) davrida u amalda hukmdor vazifasini bajargan. Abdulmalik I davrida yuqori lavozimda ishlagan, Mansur I davrida u birinchi hojib, ya‘ni davlatning birinchi ulug‘zotlaridan biri bo‘lgan. Vazir Abu Ali Muhammad al-Balamiy uning ta‘siri ostida tayinlangan va "uning bilimi va maslahatisiz" hech narsa qilishga jur‘at eta olmadi. 961 yil yanvar-fevral oylarida amir uni davlatdagi eng oliy harbiy lavozimga – Xuroson gubernatori etib tayinlaydi.

Bo‘ri-tegin yoki Beri (turkchada “bo‘ri shahzoda” degan ma‘noni anglatadi) asli turkiy bo‘lgan somoniy zobiti bo‘lib, 974/975—977 yillarda G‘azna hokimi bo‘lib xizmat qilgan. Somoniylarning yana bir sarkardasi, asli turkiy bo‘lgan Sebuktegin Bo‘ri-teginni quvib chiqardi va 977-yilda Somoniylar amiri Nuh II tomonidan hokim etib tayinlandi. Somoniy turklarining yana bir sarkardasi, 976—999 yillarda Xuroson va Samarqand hokimi bo‘lgan Begtuzun. Somoniy turkiy sarkardasi Faik al-Xassa edi. 982 yilda Balxga hokim etib tayinlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki somoniylar davlatida tashkil etilgan barcha davlat lavozimlar o‘z vazifasi jihatdan mukammal qilib tuzilgan. Shuningdek bu lavozimlarga berilgan vazifalar jihatdan davlat tizimini boshqarish mukkamal shakillantrilgan, ya‘ni saroy lavozimlaridan, Devondan tortib barcha lavozimlargacha mahaliy va diniy lavozimlargacha tarkibda davlat lavozimlari tuzib chiqilgan bu esa davlat boshqaruv tizimini soddalashtirgan. Shunday qilib, IX—X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar davlati tashkil topdi. O‘rta asrlar zamonining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruv an‘analariga suyanib, muntazam soqchi armiya va kuchli harbiy qo‘shinlarga ega bo‘lgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. O‘rta asrning bu yirik davlati o‘zining boshqaruv tizimi jihatidan, shubhasiz, O‘rta



Osiyoda O'rtta asrlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nizomulmuluk. "Siyosatnoma". Toshkent. "Adolat"-1997
2. E.V Rtvelatze, A.X Saidov, Abdullayev. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: Davlatchilik va huquq tarixidan lavxalar. Toshkent. "Adolat"- 2001
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. O'zMU nashriyoti-2000-2001
4. A.Sagdullayev O' Mavlonov. O'zbekistonda davlat boshqaruv tarixi. Toshkent. Akademiya-2006
5. O'zbekiston Tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). Toshkent. Sharq- 2000
6. O'sarov Umidjon Abdumavlonovich. Somoniylar davlatining O'rtta Osiyodatarixida tutgan o'rni. Bitiruv malakaviy ishi. Toshkent-2013